# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 8




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

TDIU — Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 1931

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 234 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish ....16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna**

Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash ....20
**Shakarov Zafar Gafforovich**

Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему ....24
**С.С. Исмаилов**

"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili ....32
**Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich**

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari ....37
**Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li**

Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari ....41
**Sh.B. Donayev**

Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir ....45
**Xursandov Komiljon Maxmatkulovich**

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish ....49
**Idirisov Alisher Otajonovich**

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari ....53
**Sultanov Maxmud Axmedovich**

Poverty in developing countries: new problems and solutions ....57
**Amirdjanova Sitora Sunnat kizi**

Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики ....61
**Вохидова Мехри Хасановна**

Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран ....69
**Буранова Лола Вахобовна**

Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi ....78
**Babamatov Tolib Xakimovich**

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ....83
**S.A.Karabayev**

O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari ....90
**Yusupov Aziz Shuxratovich**

Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi ....95
**Gulbayeva Feruza Islamovna**

Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ....102
**Sherov Alisher Bakberganovich**

Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili ....107
**Sayidova Maftuna Hamroqul qizi**

O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ....111
**Umarova Malika Baxtiyarovna**

Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций ....116
**Умида Юлдашева**

Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях ....120
**Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish ..... 127
**Ismoilov Sherzod Dilshodovich**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari ..... 132
**Ziyadullayev G‘ayrat Umidulla o‘g‘li**

Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari ..... 138
**Sharipov Narzullo G‘ulomovich**

O‘zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi ..... 144
**Shadieva Madina Djaloliddin qizi**

Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari ..... 148
**Jumanazarova Z.K.**

Xalqaro savdoning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri ..... 154
**Rashidov Bekzod Ulug‘bek o‘g‘li, Isayev Laziz Baxtiyorovich**

Oliygohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo‘llari ..... 158
**Adizov Sanjar Rashidovich**

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta’minlash asosida aholi kambag‘allik darajasini qisqartirish ..... 165
**Xoliyorov Murod Qahramon o‘g‘li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi**

Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме ..... 174
**Касимова Зилола Гуламиддиновна**

O‘zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini rivojlantrish ..... 182
**Alimov G‘ayratjon Abduraxmon o‘g‘li**

Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане ..... 186
**Шахзод Сайдуллаев**

Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish ..... 192
**Ahmedov Komron Muhammadaliyevich**

Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar tahlili ..... 196
**Quyjanov Xurshid Abdullayevich**

Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari ..... 200
**Bakayev Xurshid Maxmudovich**

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o‘rni va ahamiyati ..... 206
**Normurzayev Umid Xolmurzayevich**

Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства ..... 214
**Нурутдинова Зухра Алишеровна**

Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati ..... 220
**Madaminova Sanobar Askarovna**

Hududning iqtisodiy o‘sishini “yashil” iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari ..... 226
**Shomirzayev Abdug‘affor Abdujabbor o‘g‘li**

Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi faoliyati tahlili ..... 230
**Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi**

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# DAVLAT TIBBIY SUG'URTA JAMG'ARMASI FAOLIYATI TAHLILI

**Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi**
O'zMU "Makroiqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi maqsadi, vazifasi haqida so'z boradi. Shu bilan birgalikda, davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining sarf-xarajati tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy sug'urta, aholi salomatligi, sog'liqni saqlash, sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish, tibbiy yordam, pullik tibbiy xizmat.

Abstract: In the article, a new model of the organization of the health care system in our country and the goal, mission of the state medical insurance fund, and the analysis of the state medical insurance fund's expenses were carried out.

Key words: Health insurance, public health, healthcare, healthcare financing, medical care, paid medical care.

Аннотация: В статье проведена новая модель организатsiи системы здравоохранения в нашей стране, цель, миссия Государственного фонда медицинского страхования, а также проведен анализ расходов Государственного фонда медицинского страхования.

Ключевые слова: Медицинское страхование, здоровье населения, здравоохранение, финансирование здравоохранения, медицинская помощь, платная медицинская помощь.

## KIRISH

Butun dunyoda 2030-yilgacha BMTning Global kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ham 2030-yilgacha Barqaror rivojlanishning 16 milliy maqsadi[1] qabul qilingan.

Shulardan biri salomatlik bo'lib, bu barcha davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham eng muhim masala hisoblanadi. Bu borada keyingi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Aslida ham kelgusi besh yilda yurtimiz aholisini sifatli va malakali tibbiy xizmat bilan ta'minlash, sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Unga ko'ra, tizimda bir qator o'zgarishlar yuz bermoqda. Ulardan biri – davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini keng joriy etgan holda xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini keng ko'lamda rag'batlantirishdir. Bu bilan aholiga davlat tomonidan ko'rsatiladigan kafolatli bepul tibbiy yordam bilan birga sifatli va arzon tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va sug'urta xizmatlar bozorini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari S.S. Kenjayev, N.X. Jumayev, D.A. Raxmonov, O.R. Rayimberdiyeva, O'.D Rajabov, X.M. Shennayev, Z.X. Bazarovlarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

S.S. Kenjayev o'z ilmiy ishlarida: "Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi sog'liqni saqlash xarajatlarini nazorat qilish va samarali taqsimlashning muhim vositasidir, bu esa iqtisodiy resurslarning maqsadli va optimal foydalanishiga yordam beradi", – deb ta'kidlab o'tgan.[2]

N.X. Jumayev esa bu borada "Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi sog'liqni saqlash sohasidagi davlat xarajatlarini samaradorlik bilan boshqarish va sog'liqni saqlash xizmatlarini keng ommaga taqdim etishda davlatning rolini kuchaytirishga imkon beradi", – degan fikr yuritgan[3].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining faoliyati ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa,

1 uza.uz
2 S.S. Kenjaev. Majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish bilan bog'liq murakkabliklar. Iqtisodiyot va ta'lim/2024-yil 2-son.
3 Jumaev N.X. Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning natija mezonlarini shakllantirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №3, may-iyun, 2019.42.b.

abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4890-son[4] qaroriga asosan 2023-yildan boshlab respublikaning boshqa hududlarida Sirdaryo viloyatining ijobiy natijalari asosida bosqichma-bosqich davlat tibbiy sug'urtasi tizimi joriy etilmoqda.

O'zbekistonda 2024–2026-yillarga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar rejasida qayd etilgan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun 270 dan ortiq chora-tadbirlar, shuningdek, 2030-yilgacha erishiladigan samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Zamonaviy va samarali boshqaruv usullari hamda moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish orqali tibbiy xizmat sifatini oshirish maqsadida 2030-yilga qadar:

- sog'liqni saqlashning quyi (birlamchi), o'rta (ikkilamchi) va yuqori (uchlamchi) bo'g'imlaridagi muassasalarni moliyalashtirish manbasi, tibbiy xizmat ko'rsatish hajmi va shakllari hamda boshqaruv usullari belgilangan yangi milliy tibbiy yordam tizimi;
- kafolatlangan tibbiy xizmatlarning aniq hajmi, pulli tibbiy xizmatlar turini kengaytirish;
- davlat tibbiyot muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish va moliyaviy faoliyatini biznes reja asosida yuritish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- statsionar tibbiyot muassasalarida "har bir davolangan holat" uchun moliyalashtirish orqali davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlariga to'liq o'tish va boshqalar nazarda tutilgan.

Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy birdamlikka erishish, atrof-muhitni tiklash va inson kapitalini mustahkamlash uchun sog'liqni saqlash haqiqatan ham sarmoya kiritish uchun eng yaxshi soha ekani oydinlashmoqda. Shu maqsadlardan kelib chiqib O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda yangi model, ya'ni tibbiy sug'urta modeli joriy etildi.

2021-yildan boshlab Sirdaryoda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tashkil etildi. Hozirda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi davlat byudjeti mablag'lari va transfertlar hisobidan – 3 708,5 mlrd so'm moliyalashtirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari. (mlrd so'm)

| Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi | Yil boshiga qoldiq | 2024-yil prognoz | | | Yil oxiriga qoldiq |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Daromadlar | Byudjetdan transfertlar | Xarajatlar | |
| | 40,3 | 4,0 | 3 708,5 | 3 709,6 | 43,2 |

Xorij mamlakatlar tajribasiga ko'ra, majburiy tibbiy sug'urta jamg'armalari ish beruvchi va ishlovchilar tomonidan to'lanadigan badallar hisobiga moliyalashtiridi. Ammo O'zbekistonda hali sug'urta badallari joriy etilmadi va davlat tibbiy sug'urta jamg'armasini moliyalashtirish davlat byudjetidan aholi jon boshiga hisoblanmoqda.

Asosiy qonunimizda aholi davlat hisobidan tibbiy yordamni kafolatlangan hajmini olishga haqli deb belgilanishi esa muhim kafolatdir.

Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lamini kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyiha amalga oshirildi. Shu jarayonda Kafolat paketi ishlab chiqildi va birlamchi tibbiy yordamning bepulligi belgilab qo'yildi. Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish natijasida tibbiyot muassasalarida ro'yxatga olingan kasalliklar sinflari bo'yicha aholining umumiy kasallanishi soni kamayganini ko'rishimiz mumkin(1-rasm).

4 lex.uz›docs/5100699




1-rasm. Tibbiyot muassasalarida ro'yxatga olingan kasalliklar sinflari bo'yicha aholining umumiy kasallanishi (Jami – 100 000 aholiga ro'yxatga olingan kasalliklar).

Sirdaryo viloyatida 11 ta markaziy tuman shifoxonasi, 11 ta ko'p tarmoqli poliklinika, 36 ta oilaviy poliklinika, 56 ta oilaviy shifokorlik punkti, 35 ta mahaliy shifokorlik punkti faoliyat yuritmoqda, ularning hammasi aholiga kafolatlangan paket asosida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatmoqda. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifatini oshirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan mablag'larni 4 917 730 200 so'm miqdorda iyun oyi uchun 10 % to'lovlar amalga oshirilgan (2-jadval).

2-jadval. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan mablag'larni o'tkazish to'g'risida (iyun oyi uchun 10 % to'lov. so'm)

| Tibbiyot tashkilotlarining nomi | Iyun oyi 10% summasi | Tibbiyot tashkilotlarining nomi | Iyun oyi 10% summasi |
|---|---|---|---|
| **Viloyat tashkilotlari jami** | 24 670 700 | Sardoba TTB | 168 084 900 |
| **Guliston ShTB jami** | 318 602 700 | Mirzaobod TTB | 116 962 900 |
| **Shirin ShTB** | 52 962 400 | Xovos TTB | 184 895 200 |
| **Yangiyer ShTB** | 245 584 500 | Oqoltin TTB | 138 734 000 |
| **Guliston TTB** | 154 765 500 | Sirdaryo TTB | 384 882 300 |
| **Boyovut TTB** | 221 102 400 | Shahar va tuman tibbiyot birlashmalari | 2 151 460 800 |
| **Sayxunobod TTB** | 164 884 000 | | |
| **HAMMASI** | 4 917 730 200 | | |

2024-yilda Toshkent shahridagi tumanlarda reimbursatsiya dasturini bosqichma-bosqich joriy qilish rejalashtirilgan. Hozirda Uchtepa va Shayxontoxur tumanlarida reimbursatsiya dasturini joriy qilish ishlari olib borilmoqda. Ayni damda ushbu tumanlardagi poliklinikalar va ularga yaqin joylashgan dorixonalarni reimbursatsiya tizimiga jalb etish ishlari boshlangan. Reimbursatsiyada ishtirok etayotgan dorixona bemorga dori-darmonni elektron retsept asosida bepul beradi. Bunda berilgan dori bo'yicha dorixonalar sarf-xarajatini Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi qoplab beradi. Shu bilan birga, xususiy tibbiyot klinikalarida yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari bajarishda ham hamkorlik yo'lga qo'yildi. Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor ulushi yildan yilga ortib bormoqda.

Bu bir tomondan aholiga tibbiy xizmatdan foydalanishda keng tanlov imkoniyatini taqdim etsa, boshqa tomondan xizmatlar sifatini ham yaxshilaydi. Eng asosiysi, bu – davlat tibbiyot muassasalariga tushadigan yuklamaning sezilarli darajada kamayishiga xizmat qiladi.

Aytish lozimki, sohada yaratib berilgan shart-sharoitlar tufayli bugungi kunda mamlakatimizdagi xususiy tibbiyot muassasalarida 130 ta tibbiy ixtisoslikning 18 ta yo‘nalishida yuqori texnologiyali va murakkab jarrohlik operatsiyalari bajarilmoqda.

Xususiy sektorga davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan travmotologiya va ortopediya, akusherlik va ginekologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi, urologiya va kardiologiya kabi ixtisosliklar bo‘yicha tibbiy xizmat ko‘rsatishga ruxsat berildi.

Shuningdek, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni nodavlat tibbiyot muassasalarida davolanish xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan qoplab berilmoqda. Qolaversa, 36 ta muassasa 91 ta avtotransport vositalari bilan o‘z tez tibbiy yordam xizmatiga ega. Ta’kidlash kerak, ayni paytda tibbiyotning mazkur sektorida 16 ming 365 nafardan ziyod shifokor, qariyb 25 ming 500 nafar o‘rta tibbiyot xodimi faoliyat ko‘rsatmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy sug‘urtani joriy etish va rivojlantirish yaqin kelajakda mazkur yo‘nalishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi:

yangi nodavlat tibbiyot muassasalarini tashkil etishda xalqaro standartlarni joriy etish;

xususiy sektorda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, “xavfsiz tibbiyot” prinsipini amaliyotga tatbiq qilish;

tibbiy xizmatlar iste’molchilarining huquqlarini ishonchli himoya qilish;

sohada sifat ko‘rsatkichlarini yanada oshirish imkoni yaratiladi.

Sohaga kiritilgan sarmoyalar iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modeli tibbiy sug‘urta tizimi aholi farovonligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi Sog‘liqni saqlash sektori sug‘urtani rivojlantirishga hissa qo‘shadigan eng yirik sektordan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. S.S. Kenjayev. Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish bilan bog‘liq murakkabliklar. Iqtisodiyot va ta’lim-2024-yil 2-son.
2. Jumayev N.X. Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning natija mezonlarini shakllantirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №3, may-iyun, 2019.42-b.
3. Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – T.: “Akademiya noshirlik markazi”, 2018.– 71-b.
4. Rayimberdiyeva O.R. Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta’minlashni tashkil qilish. I.f.n. ilm. daraj. ol. uchun. baj. dis. avtoref. – T., 2001. – 21 b.
5. Rajabov O‘.D. Ijtimoiy xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari va ustuvor yo‘nalishlari. I.f.n. ilm. daraj. ol. uchun. baj. dis. avtoref.– T., 2008. – 26 b.
6. Shennayev X.M. Sug‘urta agentlari uchun qo‘llanma.-T. Moliya-iqtisod.,2011.–65 b.
7. Bazarov Z.X. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtalash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d (PhD) ilm. daraj. ol. uchun. baj. dis. avtoref.– T., 2021. – 26.
8. https://lex.uz
9. https://www.norma.uz
10. https://api.mf.uz
11. Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi rasmiy sayti – https://dtsj.uz

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.